



## YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENNESANS G'OYASINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕИ ТРЕТЬЕГО  
РЕНЕССАНСА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.

URGENT PROBLEMS OF THE FORMATION OF THE IDEA OF THE  
THIRD RENAISSANCE IN NEW UZBEKISTAN

*Jabborova Sayyora Muhammadqobilovna*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Ijtimoiy fanlar kafedra o'qituvchisi,*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yangi o'zbekistonda uchinchi renessans g'oyasini shakllantirishning dolzarb muammolari, shu bilan birga mamlakat rivojlanishiga ta'sir o'tkazib kelayotgan ayrim muammolar, xalqimizning mafkuraviy immunitetini shakllantirishga qaratilgan g'oyalar va ularni amalga oshirishda e'tibor beriladigan jihatlarin haqida so'z boradi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются актуальные проблемы формирования идеи Третьего Ренессанса в новом Узбекистане, а также некоторые проблемы, влияющие на развитие страны, идеи, направленные на формирование идеологического иммунитета нашего народа, и аспекты их реализации.

**Annotation.** This article will talk about the pressing problems of the formation of the idea of the third renaissance in New Uzbekistan, at the same time about certain problems affecting the development of the country, ideas aimed at forming the ideological immunity of our people and aspects to be paid attention to in their implementation.

**Kalit so'zlar.** Uchinchi Renessans, madaniyatning yuksalishi, milliy g'oya, Mafkura poligonlari, mafkuraviy immunitet, ilmsizlik.

**Ключевые слова.** Третье возрождение, подъем культуры, национальной идеи, полигонов идеологии, идеологического иммунитета, ненаучности.

**Keywords.** The third Renaissance, the rise of culture, the National idea, the polygons of ideology, ideological immunity, ignorance.



O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda azaldan ilm-ma‘rifatga alohida e‘tibor qaratilib kelganligini guvohi bo‘lamiz. O‘sha davrlarda jamiyatda ilm-fan, san‘at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o‘z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga qo‘shgan hissasi barchamizni birdek faxru-g‘ururimizga sabab bo‘lib kelmoqda.

Barchamizga tarixdan yaxshi ma‘lumki, diyorimizdagi birinchi Renessans davri - Somoniylar davriga to‘g‘ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiyfalsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo‘ldi. Renessansning ikkinchi davri esa – Amir Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o‘lkalari o‘z taraqqiyotining yangi pog‘onasiga ko‘tariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda

O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda”<sup>1</sup>, - degan so‘zlari ko‘pchilik ilm ahlining hushyorligini va kelajakka bo‘lgan umidini yana ham kuchaytirdi.

Yurtboshimiz mazkur chiqishlarida bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas», deb takidladilar.

Darhaqiqat O‘zbekistonda yangi uyg‘oish - Uchinchi Renessans davri boshlandi. Makur holatni bugungi kunda mamlakatimizda, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro‘y berayotgan yuksalish jarayonlari o‘zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o‘zimizning milliy o‘zligimizni anglash, boy tarixiy-ma‘naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun mohiyati mag‘zini chaqish va uni ro‘yobga chiqarishga intilgan bo‘lsak, endilikda xalqimiz jipslanib “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini sobit qadamlilik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarining mujassamligi e‘tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘un bo‘lgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o‘zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda.

Uchinchi Renessansni ro‘yobga chiqarish uchun –“ Ma‘no + fikr + g‘oya + harakat = Milliy g‘oya!” formulasi keltiriladi. Bunda asosan mustaqillikning mustahkam himoyalash, mazkur holat bo‘yicha o‘tmishdan saboq chiqarish kerakligi,

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Mustaqilligining 29 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi



aniq ravshan ko`rinadi. Masalan mustaqillikning harbiy jihatdan himoyalash mumkinligi – bu ma’lum chegaralar doirasida harbiy tayyorgarlik ko`rgan va vatani uchun jonini fido qilishga tayyor mard o`g`lonlar zimmasida ekani barchamizga ma’lim, ma’naviy himoyalash mumkinligi masalasiga kelsak – bunda jiddiy e’tibor qaratilishi lozim bo`lgan oila, mahalla, ta’lim dargohlari va kishilarning ijtimoiy hayotdagi yurish –turishi va e’tiqodidan tortib fikrlashigacha bo`lgan ijtimoiy jarayonlarni o`z ichiga oladi.

Tarixdan bizga ma’lum. biz qachon mustamlakaga tushgan bo‘lsak xalqning birlashmaganligi, fikrlarining o`zaro farqlanishi (kaltabinlik, xudbinlik), ilmsizlik va achinarlisi xiyonat sabab bo`lgan. Xalqning birlashmaganligi asosiy sababi esa, hammani birlashtiradigan yagona milliy g‘oya ishlab chiqilmaganligi va bu g‘oya odamlarning qalbiga singdirilmaganligi bo‘lib chiqadi.

Ming shukrlar bo‘lsinki hozirgi kunga kelib bizda bu g‘oya bor “Millik tiklanishdan – milliy yuksalish sari”. Endi mana shu g‘oya atrofida birlashish va mustaqillikni himoya qilish, uchinchi renessans poydevorini mustaxkam asoslarda qurishimiz zarur. Biz buni o‘z vaqtida himoya qilmasak, jiddiy e’tibor qaratmasak, dushmanlar tomonidan albatta “javob” bo‘lishi tabiiy. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda bugun jahonda qurol kuchidanda daxshatliroq va butun bir xalqni tarix sahnasidan o`chirib yuborishi mumkin bo`lgan darajadagi kurash vositlaridan foydalanishga kirib borishmoqda. O`zining “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida bungta qisqacha shunday izoh bergan edilar- “Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko’proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo’lishga undovchi tomoni shundaki,agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo’lsa, buni sezish,ko’rish,oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg’ab yetish nihoyatda qiyin”<sup>2</sup>.

Buni ham ma’naviy tomonidan himoya qilishimiz kerak. Ya’ni uchinchi renessans davrini poydevorini buzishga harakat qilayotganlarga qarshi kurashishimiz kerak. Bizga uzoqdan turib ma’naviy hujum qilishyapti. Mana shu ma’naviy hujumlarga indamay turmasligimiz shart. Ularga javob berishmimiz lozim bu ham ilmiy asosda bo‘lishi kerak. Uchinchi renessansning qurilishi va himoyasi ilmiy asosga qurilsa, bu katta kafolat bo‘ladi. Vatanni chegarachi qo‘lida qurol bilan qanday himoya qilayotgan bo‘lsa, odamlarning ma’naviyatida ham shunday himoya o‘rnatiladi.

<sup>2</sup> I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch - 2016



Uchinchi renessans milliy g'oya nima uchun biz uni ma'naviy g'oya deb atashimiz kerak. Chunki ilmga qararak buning javobini bilamiz.

Unda ma'no degan so'zdan boshlaymiz. Chunki uchinchi renessans davri mukammal amalga oshishi uchun, tez amalga oshishi uchun odamlar, yoshlar uchinchi renessansning ma'nosini tushunib olishlari kerak, qabul qilib olishlari kerak. O'ziga manfaatli ekanligini anglashlari kerak. O'zini baxtli bo'lishligi uchun uchinchi renessans bo'lishligiga iqrar bo'lishi kerak. Ma'nosini tushunishi kerak.

Ma'nodan keyin fikr keladi. Fikrdan keyin g'oya keladi. G'oyadan keyin xarakat boshlanadi. Xarakat esa Uchinchi Renessansni yaratadi. Har bir O'zbekistonlikning ongida xarakat natijasi o'laroq yangi O'zbekistonnig yangi avlodlari uchun farovon hayotni ta'minlashga xissa qo'shamiz. Demak biz hozir shuni boshidan boshlamasak, boshidan puxta ilmiy asosda ilmiy tashkil etmasak qiyin bo'ladi. Nima uchun qiyin bo'ladi. Odamlar yaxshi tunushunmasa, yaxshi anglamasa, o'zini manfaatini ko'rmasa umummilliy harakatga qo'shilishi qiyin bo'ladi. Yana ularni chaqirib, yig'ib tashkil qilish kerak bo'ladi. Ular bu harakatga qo'shilishni xohlamasligi mumkin, mayda – chuyda ishlarga berilib o'zligi va kelajakka bo'lgan umidini unutishi mumkin.

Shuningdek “Uchinchi renessans g'oyasini” xalqimiz ongiga singdirishda bir qator dolzarb muammolarga duch kelishimiz avvaldan ma'lum:

Birinchidan insonlar uzoq vaqt davomida turg'un hayot kechirishi, ayniqsa sobiq SSSR davrining “farovon hayot egalari” o'z taqdirini o'zi belgilash vazifasini qo'llariga olish mas'uliyatidan ko'ra tobelikni avzal ko'rishlari hamda ularning ayrim qatlami haligacha yurtimizda va xattoki vakolatli lavozimlarda faoliyat olib borayotganlari ham mavjud.

Ikkinchidan odamlarga uchinchi renessansni ma'nosini tushuntirish bosqichida ilm ahllarining “hayolparast”ga chiqarilishi muammosi . bu ayni haqiqat bo'lib o'z-o'zidan paydo bo'lgan muammolardan biri emas, balki, mustaqillikning dastlabki davrlaridan hozirgi kunlarga to'planib kelayotgan xalq dardi sanaladi.

Misol uchun yaqin 2 yil mobaynida aholining ijtimoiy himoyalanganlik darajasi ancha yuqori ko'rsatkichlarda o'sishiga qaramay imkoniyatlari haligacha byurokratik to'siqlar sabab ayrim shaxslarning “ehtiyojlariga” yo'naltirilmogda.

Uchinchidan insonlar ongida biror bunyodkor g'oyani shakllantirish uchun kerak bo'lsa inson umri yetmasligi mumkin. Ammo birgina vayronkor g'oyaning oddiy kichik reklama bannerlari orqali dunyo miqyosida tarqalishi hozirgi kunda odamlarni hayratga solmayapti.



To`rtinchidan. Insonlar doimo oddiqlikdan murakkablikka tomon intilib bormoqda. Lekin shuni inobatga olish kerakki odam ruhiyatida shakllangan bir qoida borki natijaga erishgan zahoti o`zini erkin qo`ya boshlaydi. Murakkab darajadagi vazifani bajargan bir inson uni boshqa bir tajribali inson uchun oddiy yumush ekani haqida o`tlab ham ko`rmaydi. Yanada soddaroq aytganda insonlar o`zlari uchun muammolar yaratib u bilan kurashgan holda umrining ko`p qismini o`tkazib yubormoqdalar.

Beshinchidan xalqlarni butun dunyo miqyosida boshqarishga urinuvchi kuchlar, tashkilotlar, va shaxslar haqida ba`zi ma`lumotlar keltirib o`tiladi, ammo axborotni oxirigacha yetkazilmaydi. Demak bunday kuchlar mavjud va ular dunyo aholisini o`z manfaatlari doirasida xizmat qilishga majbur qilishi tabiiy hol.

Biz Uchinchi Renessans g`oyasini ilgari surayotgan bir paytda ular bunga shunchaki yo`l berishlari mushkul.

Ushbu g`oyani amalga oshirishda bir qator bosqichlarda faoliyatlarni davom ettrib borish zarurati yuzaga keladi.

Birinchi bosqich odamlarga uchinchi renessansni ma`nosini tushuntirish bosqichi.

Ikkinchi bosqich odamlarni fikrlarini paydo qilish bosqichi. Ya`ni odamlar uchinchi renessans haqida mayli boshqa so`zlar bilan gaplasha boshlasin, kundalik hayoti davomida uchinchi renessans haqida gaplashib, savollar bera boshlasin, o`zini fikrini aytsin, nega, chunki odamlar o`zini fikrini aytmasa, odamlar uchinchi renessans haqida nimalarni bilishi, nimalarni o`ylayotganligi, bu fiklari to`g`rimi, noto`g`rimi ekanligini bilib bo`lmaydi, baholab bo`lmaydi, darajalashtirib, qayerda, qaysi hududda odamlar uchinchi renessansni to`g`ri angalayapti, qayerda yaxshi, qayerda o`rtacha va qayerda anglamayapti deb darajalashtirish mumkin.

Uchinchi bosqich g`oya bosiqichi. Uchinchi renessans har bir odamning g`oyasiga aylandimi, yo`qmi, qayerda, qaysi hududda, qaysi tashkilotda, vazirlikdagi odamlarni g`oyasiga aylandi uchinchi renessans g`oyasi, to`liq aylandi, qayerda o`rtacha va qayerda aylanmadi, buning sabalarini o`rganib, halaqit berayotgan sabalarni yo`qotish kerak. Rivojlantiriyotgan sabablarni rivojlantirish kerak.

To`rtinchi bosqich bu harakat bosiqichi. Qayerda uchinchi renessans uchun odamlarning harakati faol, qayerda o`rtacha va qayerda harakati sust. Nima uchun sust. Ilimiy va faqat ilmiy yondashuv bu savollarga javob bera oladi, noilmiy yondashuv faqat yuzaki ko`radi, yuzaki xulosa qiladi, yuzaki ishlarni tashkil qiladi va yuzaki natijalarga erishiladi. Bunga esa yo`l qo`yib bo`lmaydi. Bu esa uchinchi



renessans masalasi ma'naviy-mafkuraviy masalada to'r tbosqichdan iborat bo'lishi kerak.

Bu borada ishlar amalga oshirilayotgan bir davrda tashqi kuchlar va ichki norozi tomonlarning turli tahdidlariga va xurujlariga jiddiy e'tibor qaratish, xalqimiz hamda insonlarni doimiy ravishda mafkuraviy immunitetini mustahkam qilib borishimiz zarur.

Xalqaro maydonda yuz berayotgan ijtimoiy – siyosiy jarayonga nazar tashlasak, turli siyosiy kuchlar o'zlarining strategik maqsadlariga intilib, “erkinlik” va “demokratiya” niqobi ostida faol harakatda. Bu buzg'unchi kuchlar o'z fa'oliyatlarini hamon ustalik, silliqlik bilan, bejirim bezaklar bilan olib bormoqdaki, har qanday kishini manfur niyatlari girdobiga tortish imkoniga ega. Bu kuchlar o'z niyatlari yo'lida millionlab mablag'larni ayayotganlari yo'q, ular er yuzining istagan nuqtasida, istagan xalqni o'zligidan ayirish va o'z ta'sir doirasiga olishni niyat qilib, buning ortidan millionlab foyda, daromadni ko'zlab ish yuritmoqdalar.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zga xududlarni zabt etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari uzluksiz takomillashib borganini ko'ramiz.

Bu qurollar bosib olinishi kerak bo'lgan xududlar aholisini jismonan yo'q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o'zga hududlarni zabt etish uchun ularning aholisini yo'qotish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari “ma'qul” yo'nalishga o'zgartirilgan aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda.

Mafkura poligonlarida sinovdan o'tayotgan, mohiyatan g'ayriinsoniy bo'lgan g'oyalarga qarshi tura olish uchun alohida mafkuraviy immunitet hosil qilish lozim. Immunitet (lat.immunitas – ozod bo'lish, qutilish) deganda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlash, o'zini turli xususiyatlarga ega ta'sirlaridan, uni tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli infeksiyon kasalliklarga berilmaslik hususiyatini ham ifodalaydi. Immunitet haqidagi ana shu tasavvurdan kelib chiqib mafkuraviy immunitet haqida nima deyish mumkin? Avvalo, insonning ko'plab hususiyatlari tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos hususiyatga ega bo'ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllanadigan mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis — yaqin



manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'sirini doimiy sezib yashamoqda»<sup>3</sup>. Shuning uchun ham bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchli.

Chunki ularning ta'siri radio, televidenie, gazeta-jurnal, Internet; umuman, hamma axborot tarmoqlari orqali kirib kelmoqda. Ular odamlarni uyda ham, ko'chada ham, ishda ham tinch qo'ymasligi mumkin.

Yadro poligonida tayyorlangan qurol faqat muayyan hududni vayron qiladi, ammo mafkuraviy poligonlardan turli axborotlar, badiiy asarlar, o'yinchoqlar, kundalik ehtiyoj mollari shaklida tarqalayotgan vositalar esa insonlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgandir.

Hozirgi kunda bizning turmush tarzimizga, ruhiyatimizga nisbatan qilinayotgan ma'naviy-ma'rifiy hurujlarning usullari tobora noziklashib borayapti. Zararli g'oyalar turli kinofilmlar, televedenie ko'rsatuvlari va radio eshittirishlari shaklida, gazeta-juurnallar, internet tarmog'i va boshqa yo'nalishlarda uzluksiz ravishda tiqishtirilib, bizning milliy tushunchalarimizni barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarimizni durugaylashtirishga muntazam harakatlari sezilib turibdi. Bugungi kunda inson qalbini egallash uchun butun dunyoda to'xtovsiz kurash ketayapti. Bu zararli g'oyalarga qarshi xalqimizning or-nomusi, diniy va dunyoviy e'tiqodi, ma'naviy qadriyati, mafkuraviy immunitet vazifasini o'tashi zarur.

Alohida bir odamning ruhiyati jamoa ruhiyatiga teng emas, albatta. eng qizig'i shundaki, jamoa ruhiyatida ongsizlik darajasi balandroq. Ommaviy taassurotda Ommaviy Axborot Vositalari tomonidan aytilgan gaplarga birdan ishonish, vahimaga tushish, salbiy informatsiyaga ko'proq berilish kayfiyatlari ancha kuchli. Buni Karl Yung «jamoaviy ongsizlik»<sup>4</sup> deb ta'riflagan va bugungi kunda ushbu psixologik kategoriyani topib, uni isbotlab berilgani Yungning buyuk kashfiyoti deb hisoblanadi. Karl Yung ta'limotining ahamiyati shundaki, mazkur «jamoaviy ongsizlik» holatining jamiyatda paydo bo'lishi mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishiga salbiy ta'sir qiladi.

Xulosa o'rnida bugungi kunda har bir vatandoshimiz uchun dasturulamal bo'lishi kerak bo'lgan fikrni iqtibos keltirmoqchiman.

<sup>3</sup> I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch - 2016

<sup>4</sup> John Pratt "Karl Yung: tarjimai holi, nazariyalari, arxetiplari"



“Bugungi kunda g`oyani taqiq bilan, ma`muriy chorlar bilan yengib bo`lmaydi. G`oyaga qarshi faqat g`oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma`rifat bilan bahsga kirishish, olishishi mumkin”<sup>5</sup>

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O`zbekiston strategiyasi. 2021
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev O`zbekiston Mustaqilligining 29 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch – 2016
4. I. A. Karimov, Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. 1998.
5. Qosimbek o`g`li P. J. JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O`ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO`NALTIRILGAN TARG`IBOT MAQSAD MUDDAOSI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 7. – С. 39-42.
6. John Pratt “Karl Yung: tarjimai holi, nazariyalari, arxetiplari”.
7. Qosimbek o`g`li P. J. JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O`ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO`NALTIRILGAN TARG`IBOT MAQSAD MUDDAOSI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 7. – С. 39-42.

---

<sup>5</sup> I. A. Karimov, Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. 1998